

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING AXBOROT KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Atamuratova Nesibeli Dawirxan qizi

Nukus davlat pedagogika instituti “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)” ixtisosligi 2-bosqich doktoranti.

Annotatsiya: Bugungi kunda bo’lajak boshlang‘ich sinfo `qituvchilarining har tamonlama yetuk mutaxasis bo’lib yetishib chiqishida axborot kompetentsiyasining juda katta ahamiyatga ega. Maqolada bo’lajak o‘qituvchilarning axborot kompetentsiyani takomillashtirishning nazariy asoslari keltirilgan.

Annotation: Today, information competence is of great importance in the development of each complete adult specialist of future primary school teachers. The article presents the theoretical basis for the improvement of information competence of future teachers.

Kalit so`zlar: Axborot-kommunikatsiya kompetentsiya (AKT kompetentsiya), axborot kompetentsiya, kasbiy muommo.

Keywords: Information and communication competence (ICT competence), information competence, professional communication.

Bugungi kunda har qanday saho uchun yuqori darajadagi axborot-kommunikatsiya kompetentsiyasiga (AKT kompetentsiyasi) ega bo`lgan kadrlarga ehtiyoj asosli ravishda ortib bormoqda. Shuningdek, ta’lim tizimi va ma’lumotlar shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda o‘qituvchining AKT kompetentsiyasi darajasi juda zarurli ekanligini ta’kidlab o’tish kerak.

Pedagogik kadrlar tayyorlashning eng asosiy vazifasi – bo`lajak o‘qituvchilarning nazariy tayyorgarligi va o`z mutaxasisligi bo`yicha ish

tajribasiga ega bo`lishi va maktabda ularni samarali usulda amalda qo`llay olishi uchun zarur bo`lgan barcha kompetentsiyalarni egallashlarni ta'minlashdan iborat. Bu vazifalarga O.E.Lebedov umumiy bir komplekt misolida yondashish zarurligini ta'kidlab o'tadi. Bunday yondashuv ta'lim maqsadlarini belgilash, ta'lim tizimini tanlash, ta'lim jarayonini tashkil etish va natijalarini baholashning umumiy tamoyillari majmui bo`la olishini aytib o`tgan.

AKT kompetentsiyasi boshqa kasbiy kompetentsiyalar bilan uzviy bog`liq holda o`rganilishi va takomillashishga muhtoj. AKT kompetentsiyasi doimiy izlanishni, tadbiq etilishni talab qiladi. Muayyan bir nazariyaga asoslanib doimiy bo`lgan qoidalar va bilimlarni yaratish imkoniyati mavjud emas. Bugun mavjud axborot texnologiyalariga har kuni yangi qo`shimchalar, imkoniyatlar kiritilayotganini aytib o`tish kerak.

AQSH ta'lim va tadqiqot kutubxonalari assotsiatsiyasi (ACRL) axborot kompetentsiyasini quyidagi qobiliyatlar to`plami sifatida belgilaydi:

- shaxs tomonidan ma'lumotga bo`lgan ehtiyoj;
- ma'lumotni topish;
- ma'lumotni baholash;
- ma'lumotdan samarali foydalanish istagi.

Yana shuni ta'kidlab o`tish kerakki, kerakli ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish, tanlash, qayta ishlash, uzatish va saqlashga qaratilgan inson bilimlari, ko`nikmalarining ma'lum bir integral komponentini biz har qanday AKT orqali amalga oshira olamiz.

AKT kompetentsiyasi keng ma'noda o`qituvchi AKT texnologiyalarini qo`llanish orqali shaxsiy, ta'lim va kasbiy xarakterdagи muommolarni hal qilish qobilyati deb tavsiflansa, tor ma'noda AKT kompetentsiyasi o`qituvchining shaxsiy sifati sifatida tushiniladi, bu uning o`quv va undagi vujudga keladigan amaliy muommolarni hal qilish uchun o`quv faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan mustaqil foydalanishga doir ko`nikmalarida namoyon bo`ladi.

Xutorskiy axborot kompetentsiyasini ob'ektiv va sub'ektiv sifatlarga ega bo`lgan zamonaviy mutaxasislarning asosiy vakolatlaridan biri deb tushuntiradi.

Obiektiv sifati o`qitivchining pedagogik faoliyatiga qo`yiladigan ijtimoiy talablarda namoyon bo`ladi.

Subiektiv sifati mutaxasisning o`ziga xosligi, axborot komptentsiyasini takomillashtirish va rivojlantirishga bo`lgan qiziqishidan ob`ektiv tomonni ko`rsatib beradi.

Ba`zi tadqiqotchilar axborot kompetentsiyasini takomillashtirish natijasining yuqori belgisi sifatida ta`limda axborot madaniyatini shakllantirish zaruriyatini atab o`tgan. Axborot madaniyati haqida Kozlov: “Fikrlash, xulq-atvor, muloqot, faoliyat madaniyati toifalari va axborotni toplash, saqlash, qayta ishlash va uzatish vositalari va usullarini o`zlashtirish darajasini aks ettiruvchi madaniyat deb, umumiy holda insoniyat madaniyatining nisbatan ajralmas quyi tizimi ekanligini aytadi.

Zitsaeva bo`lajak o`qituvchining axborot kompetentsiyasining negizi universtitet ta`limi jarayonida va asosiy mavjud axborot kompetentsiyasiga asoslanadi deb aytib o`tgan. Muallif bo`lajak o`qituvchilarning axborot kompetentsiyasini uch jihatdan ko`rib chiqadi:

- universal shaxsiy kompetentsiya;
- umumiy kasbiy va pedagogik kompetentsiyaning bir qismi;
- uslubiy kompetentsiya;
- maxsus professional pedagogik kompetentsiya.

AKT kompetentsiyasi insonga turli manbalardan olingan, turli mazmun va taqdimot shakllariga ega bo`lgan axborot bilan ishlash ko`nikmalarini beradi. Kompyuter axborotni uzatish, saqlash va qayta ishlash vositasi sifatida ishlaydi.

Shunday qilib, axborot kompetentsiyasi o`qituvchilarning zaruriy sifati bo`lib, ularning o`z mutaxasisligining nazariy va amaliy asoslarini o`zlashtirishga, kasbiy o`zini-o`zi rivojlantirishga, shaxsiy o`zini-o`zi anglashga va axborot xajmining ortishi va texnologiyaning rivojlanishi sharoitida o`zini-o`zi anglashiga qaratilganligini bilan tavsiflanadi.

AKT vositalaridan foydalanish pedagogik muommolarni hal qilish samaradorligiga ta'sir qiladi., shuning uchun kompetentsiya ta'rifiga kiritilgan kasbiy muommolarni samarali hal qilish talabi ham qondiriladi

Shunday qilib, o`qituvchining AKT kompetentsiyasi tushunchalarini aniqlashga yuqoridagi yondoshuvlardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash kerakki, bu tushuncha ko`p qirrali bo`lib, o`qituvchining tayyorgarligiga qarab o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`ladi va jamiyat va ta'lim tizimini axborotlashtirish darajasiga qarab dinamik ravishda o`zgarib turadi.

Shunday qilib, boshlang`ich sinf o`qituvchisining AKT kompetentsiyasing aniq ta'rifini kiritish zaruriyati jadal rivojlanish tufayli uning mazmunining dinamikligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Утенин, М. В. Формирование информационной компетентности студентов на основе технологий мультимедиа: автореф. дис. ... канд.пед. наук: 13.00.08 / Утенин Максим Викторович. – Москва, 2006. – 25 с.
2. Ефимова, Ю.В. Формирование информационно-коммуникационной компетентности студентов вуза в контексте модернизации высшей школы [Электронный ресурс] // Современные проблемы науки и образования. – 172 2012. – № 6. – Режим доступа: www.science-education.ru/106-8031. - Загл. с экрана.
3. Агафонова, И.Д. Формирование коммуникативной компетенции у менеджеров в дополнительном профессиональном образовании: Дисс....канд. пед. наук:13.00.08/ Агафонова Ирина Даниловна. – Барнаул, 2009. – 204 с. 5. Андреев, А.А. Дистанционное обучение: сущность, технология, организация / А.А. Андреев, В.И.Солдаткин. – М.: Издательство МЭСИ, 1999. – 196 с
4. Быков, С.А. Формирование информационно–коммуникационной компетентности будущих учителей начальных классов: автореф. дис. ... канд. пед. наук:13.00.08 / Быков Сергей Александрович. – Новокузнецк, 2009. – 23 с.

5. Профессиональный стандарт «Педагог (педагогическая деятельность в сфере дошкольного начального общего, основного общего, среднего общего образования) (воспитатель, учитель)» [Электронный ресурс] : указание М-ва образования и науки Рос. Федерации от 18. 10. 2013 г. № 544 н. Документ опубликован не был. Доступ из справ.-правовой системы «КонсультантПлюс»
6. Короповская, В.П. Непрерывное формирование ИКТ–компетентности педагога в условиях информационного образовательного пространства школы: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / Короповская Вера Павловна. – Н.Новгород, 2010. – 228 с.
7. Зайцева, С.А. Состояние и перспективы развития ИКТ–компетентности учителя начальных классов / С.А. Зайцева // Ярославский педагогический вестник. – Ярославль: ЯГПУ им. К.Д. Ушинского, 2011. – №2. – С. 109–112. 48. Закон «Об образовании в Российской Федерации» от 29. 12. 2012 г. №273-ФЗ. – М.: ТЦ Сфера, 2014. – 192 с.
8. Зайцева, С.А. Система формирования информационной и коммуникационной компетентности будущих учителей начальных классов в педагогическом вузе: дис. ... д-ра пед наук:13.00.08 /С.А. Зайцева. – Шуя, 2011. – 423 с.
9. Заболотнова, Е.Ю., Рудинский, И.Д. Система оценивания компетентности преподавателя вуза в сфере информационнокоммуникационных технологий // Известия БГАРФ № 3 (29) 2014.[Электронный ресурс]. URL: <http://bgarf.ru/science/journal-izvestia/29- 2014/upravleniye-i-menedzhment-kachestva.pdf> (Дата обращения 01.02.2015).
10. Роберт, И.В. Теория и методика информатизации образования (психолого–педагогический и технологический аспекты) 3–е издание, дополненное / И.В. Роберт. – М.: ИИО РАО, 2010. – 356 с.

11. Седова, Т.В. Формирование готовности преподавателей к разработке и использованию электронных учебных средств / Т. В. Седова // Вектор науки ТГУ. - 2010. - №3 (13) . - С. 344-349.
12. Козлов, О.А. Формирование ИКТ – компетентности управленческих и педагогических кадров в условиях сетевого взаимодействия / О. А. Козлов // Вестник Мининского университета.- 2016.- № 2 (15). - С. 6.
13. Козлов, О.А. Развитие методической системы обучения информатике курсантов военно–учебных заведений Министерства обороны РФ дис. ... дра пед наук:13.00.02 / Козлов Олег Александрович. – Москва, 1999. – 541
14. Гершунский, Б.С. Философия образования для XXI века / Б.С. Гершунский. – М.: Флинта, 1998. – 492 с.